

**Bank bo‘linmasida olish uchun
"Ipoteka 1.0" kredit mahsuloti pasporti**

1. Umumiy shartlar.	
Bankining nomi Rasmiy veb-sayti Telefon raqam Manzil	"Octobank" AJ www.octobank.uz +998 71 202 33 33 O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., 100021, Furqat ko‘chasi 2
Kredit maqsadi	- Kadastr hujjatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, akkreditatsiyadan o‘tgan quruvchi (developer)dan birlamchi bozorda (yangi qurilgan uy-joylar) ko‘chmas mulk sotib olish; - Ikkilamchi bozorda ko‘chmas mulk sotib olish.
Ko‘chmas mulkning joylashgan hududi	Toshkent shahri yoki Toshkent viloyati
Foiz stavkasi	Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish qo‘mitasi tomonidan belgilangan stavkaga muvofiq
Kredit muddati	120 oygacha
Boshlang‘ich to‘lov	20%
Maksimal summa	Cheklanmagan
Minimal summa	Cheklanmagan
Kredit turi	Qayta tiklanmaydigan
Kredit valyutasi	O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so‘m
Imtiyozli davr	Taqdim etilmaydi
Kreditni qaytarish usuli	Differensial yoki annuitet to‘lovlari bilan
Qarz oluvchining to‘lovlarni amalga oshirish davriyligi	Har oyda, to‘lov jadvaliga muvofiq
Muddatidan oldin so‘ndirish	Ruxsat etiladi (qo‘shimcha to‘lovsiz)
2. QARZ OLUVCHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR	
Fuqarolik	Jismoniy shaxs - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi
Yosh	Yosh — shartnoma tuzilgan sanada 20 yoshdan boshlab va kredit muddati tugaydigan sanada 70 yoshdan oshmagan (mijoz/birgalikda qarz oluvchi).
Qarz yuki	Barcha kreditlar bo‘yicha oylik to‘lovlar 50% dan oshmasligi kerak.
Birgalikda qarz oluvchi	3 tagacha shaxsni jalb qilishga ruxsat etiladi.
O‘rtacha oylik daromad miqdorini aniqlash.	Ariza topshirilgan sanadan oldingi kamida oxirgi 6 oy davomida doimiy daromad manbaiga ega bo‘lish.
3. TA‘MINOT	
Kredit bo‘yicha ta‘minot	Birlamchi va ikkilamchi bozordan ko‘chmas mulk sotib olinganda, kredit ta‘minoti sifatida sotib olinayotgan ko‘chmas mulk qabul qilinadi. Bunda, birlamchi bozordan ko‘chmas mulk sotib olinganda, mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgunga qadar ta‘minot sifatida boshqa likvidli ko‘chmas mulk garovi taqdim etiladi. Mulk huquqi rasmiylashtirilgandan so‘ng, sotib olingan ko‘chmas mulk Bankka garov sifatida beriladi, avval taqdim etilgan ta‘minot esa belgilangan tartibda ozod qilinadi.

Sug'urta talabi	Mol-mulk va hayotni Sug'urta qildiruvchining mablag'lari hisobidan sug'urta qilish.
4. ZARUR HUJJATLAR	
O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti / ID-karta	
Nikoh to'g'risidagi guvohnoma / nikoh haqida ma'lumotnoma va turmush o'rtog'ining pasporti	
Ulushli ishtirok shartnomasi / Oldi-sotdi shartnomasi / Ko'chmas mulkni sotib olish shartnomasi	
Ko'chmas mulkning tayyorligini tasdiqlovchi hujjatlar (kadastr va garov hujjatlari)	
Mustaqil baholovchi tashkilotning baholash hisoboti (ikkilamchi bozor uchun)	
O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma (o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun)	
5. QO'SHIMCHA MA'LUMOT	
Muddati o'tgan qarzdorlik qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) nomiga ochilgan barcha hisobvaraqlardan, shu jumladan boshqa banklardagi hisobvaraqlardan ham akseptsiz tartibda hisobdan chiqariladi.	
Kreditning asosiy qarzi belgilangan muddatlarda qaytarilmagan taqdirda, muddati o'tgan qarzdorlikning amaldagi qoldig'iga yillik 50,00 foiz miqdorida foiz stavkasi hisoblanadi.	
Bank qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadini aniqlashda qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan va/yoki Bankning o'z axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlardan, kredit byurosi tomonidan taqdim etilgan axborotlardan, shuningdek boshqa rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanadi.	